

2023-yil, to'rtinchi 4-son



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2181-2394 (print) ISSN 2181-2402 (online) | Yangi qadimiy adabiyotni o'qish va o'rganish uchun | New classical literature for reading and studying | Новое классическое искусство для чтения и изучения



**BUYUK SHOIR, QOMUSIY OLIM,
DAVLAT ARBOBI VA MOHIR SARKARDA
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
TAVALLUDINING 542 YILLIGI**

Albatta, yuqorida keltirilgan mavzular iqtisodiyot yo'nalishidagi tayanch fanlarning barcha matematik asosini to'liq o'z ichiga olmaydi. Chunki, iqtisodiy fanlar ham rivojlanib bormoqda va yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyimoqda. Shu sababli iqtisodiyot yo'nalishidagi talabani bilimga bo'lgan qo'shimcha talabi matematika fanining zarur bo'lgan qismlarini mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirishi ham muhim hisoblanadi. Bunda talaba uchun hech qanday to'siq yo'q, chunki matematika fanidan yetarlicha milliy adabiyotlar chop etilgan hamda elektron naqlari ham mavjud.

Xulosa. Turli iqtisodiyot yo'nalishidagi tayanch fanlarga oid xorijiy va milliy adabiyotlarning tahlilidan "Amaliy matematika" fanida beriladigan bilimlar matematika fanidan minimal hajmda bo'lishi yetarilgini ko'rsatadi. Iqtisodiyot yo'nalishining aksar tayanch fanlarining matematika bilan bog'langan modellari "Amaliy matematika" fani mazmunining asosini tashkil etishi, berilayotgan bilimlar talabani mutaxassislik fani masalalarini yechish uchun asos bo'lishi va zarur bo'lsa, matematikadan chuqurlashgan bilimlarni qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil bilim olishga yo'naltirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.R.Azamatov, M.A.Xolmirzayev. Bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. "Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi", Volume 4, CSPU Conference 1, 2023.
2. Sh.Sharaxmetov, O.T.Qurbanov. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2017. 384-b.
3. G.Nasritdinov, M.Abduraimov. Iqtisodchilar uchun matematika. O'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 2001. 125-b.
4. Sh.R.Xurramov. Oliy matematika masalalar to'plami-1, 2, 3. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2015.
5. Ш.Ш.Бабаджанов. Экономическая математика. Учебное пособие. – Т.: "Иқтисод молия", 2017. 746 с.
6. С.А.Аникин и др. Математика для экономистов. Учебное пособие. – Екатеринбург, 2014. 72 с.
7. Edward T. Dowling. Mathematical Methods for Business and Economics. Elektron qo'llanma. McGraw-Hill, 1993. 670 b.
8. Richard P. Waterman. Business Mathematics For MBAs. Elektron qo'llanma. Roosterlurkin Publications, Abington, PA. 2015. 340 b.



Kamola RAXMATJONOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent v.b.
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
kamolarahmatjonova@gmail.com

HINDIY VA O'ZBEK TILLARIDA GAPDA SO'ZLARNI BIR-BIRIGA BOG'LOVCHI VOSITALAR XUSUSIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek zamonaviy hindshunosligida hanuzgacha o'z yechimini topmagan kelishik grammatik kategoriyasining ko'rsatkichlarini ifodalovchi, hindiy tilida vibhakti deb yuritiluvchi va rus tilidan o'zbek grammatik terminiga bevosita olingan poslelog atamasini qo'llashda duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning yechimi haqida so'z boradi. Tadqiqotda poslelog termini M. Iriskulov, ort ko'makchi termini esa O.Shomatov, R.Aulova, B.Rahmatov, M.Sodiqovalar tomonidan nashr qilingan asarlarga tayanilgan holda qo'llangan.

Kalit so'zlar: grammatik kategoriya, kelishik, poslelog, vibhakti, ko'makchi.

Аннотация: в данной статье говорится о некоторых проблемах, возникающих при использовании термина послелог, который на хинди называется vibhakti и напрямую заимствован из русского языка в узбекский грамматический термин, который представляет собой показатели грамматической категории согласия, которая пока не нашла своего решения в узбекском языке, современная индология и их решение. В исследовании использован термин постолог на основе работ, опубликованных М. Ирискуловым, а термин ассистент – О. Шоматова, Р. Ауловой, Б. Рахматова и М. Содиковой.

Ключевые слова: грамматическая категория, падеж, послелог, vibhakti, вспомогательный.

Annotation: this article talks about some problems that arise when using the term postposition, which in Hindi is called vibhakti and is directly borrowed from the Russian language into the Uzbek grammatical term, which represents indicators of the grammatical category of agreement, which has not yet found its solution in the Uzbek language, modern Indology and their solution. The study used the term postologist based on works published by M. Iriskulov, and the term assistant was used by O. Shomatova, R. Aulova, B. Rakhmatov and M. Sodikova.

Key words: grammatical category, case, postposition, vibhakti, auxiliary.

Hozirgi globallashuv davrida tilshunoslik fanining turli tillar strukturasini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Jumladan, hindiy va o'zbek tillari hind-yevropa va oltoy til oilalariga mansub bo'lib, ularning grammatik tuzilishi va so'zlarni bog'lash xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu bois, bu tillarda gapda so'zlarni bog'lovchi vositalarni o'rganish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhimdir. Hindiy tili agglyutinativ va analitik xususiyatlarini mujassam etgan bo'lsa, o'zbek tili agglyutinativ tillar qatoriga kiradi. Bunday farqlar tillar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, hindiy va o'zbek tillarida gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash usullarini o'rganish orqali tilshunoslikdagi qiyosiy-tahliliy tadqiqotlar rivojiga hissa qo'shiladi. Bu esa o'z navbatida hindiy va o'zbek tillarining morfologik va sintaktik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish; ikki tilda bog'lovchi vositalarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlab, tillar orasidagi munosabatlarni o'rganish; hindiy va o'zbek tillaridagi grammatik bog'lovchi vositalar evolyutsiyasini tushunishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi hindiy va o'zbek tillarida gapda so'zlarni bog'lovchi vositalarni tahlil qilish, ularning grammatik vazifalarini o'rganish va ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda mazkur vazifani bajarayotgan terminlarni to'g'ri tanlashdan iborat.

Tillarda grammatik terminlarning tadqiqi biroz murakkab va tadqiqotchidan bilim va tajriba talab qiladigan jarayondir. Chunki bir tilda mavjud grammatik termin ikkinchi tilda aynan mos holatda uchramasligi mumkin. Biroq bu tanlangan til grammatikasida mazkur jarayonning mavjud emasligidan dalolat bermaydi. Jumladan, hindiy va o'zbek tillarining grammatik qatlamida kelishik grammatik kategoriyasi mavjud. O'zbek tilida kelishik deyilsa, hindiy tilida ka:rak termini bilan ishlatiladi. Bu grammatik kategoriya ikki tilda ham aynan bir grammatik vazifani bajaradi.

Mashhur tilshunos olim J. Layonz ma'lumotiga binoan kelishik – o'ning grammatik kategoriyasi hisoblanib, mazkur ot narsa-predmet va hodisa bilan ifodalangan munosabatni anglatuvchi kategoriyaviy ma'noni anglatadi va shu bilan gapdagi boshqa so'zlarga nisbatan munosabatini bildiradi [Dj. Layonz, 1978.-s.9].

Kelishik kategoriyasining aniq ifoda shakli – kelishik shakllari bo'lib, aniq tovush qatorlaridan iborat morfemalardan tuzilgan, ular asos morfemalar bilan birga so'zga aniq ma'no beradi. O'zgarish tizimini vujudga keltiruvchi kelishik shakllarining yig'indisi turlanish deyiladi [Dj. Layonz, 1978.-s.9].

V.Prasadning fikricha, gapda ot va olmoshlarni boshqa so'zlar bilan bog'lovchi grammatik kategoriya – कारक ka:rak "kelishik" deyiladi. Shuningdek, ot yoki olmoshning fe'l bilan munosabatini ta'minlovchi grammatik kategoriya ham kelishikdir¹. Olimning uqtirishicha,

ot yoki olmoshning ने ne, को ko, से se kabi posleloglar bilan birikkan holatda kelishi kelishik kategoriyasidir. Shunday posleloglar bilan kelgan so'zlar boshqa so'z bilan biriksa, so'z birikmalari hosil bo'ladi. ने ne, को ko से se kabi posleloglar turli kelishiklarga xosdir. Mazkur posleloglar ot yoki fe'llar bilan birikib, ka:rakpad "kelishikli birikma" yoki kriya:pad "fe'lli birikma" larni hosil qiladi. Bunday birikmalarsiz bironta jumlani tasavvur qilish mumkin emas.

Masalan, रामचन्द्र जी ने ... समुद्र पर बन्दरौ से पुल बंधवा दिया Ramchandra ji: ne ... samudr par bandaroN se pul baNdhva: diya: "Ramchandar ... dengizda maymunlardan ko'priki yasattirdi".

Bu gapda रामचन्द्र जी ने Ramchandra ji: ne "Ramchandar (bosh kelishikda, gapdagi ish - harakat tugallangan zamonda)", समुद्र पर samudr par "dengizda", बन्दरौ से bandaroN se "maymunlardan" va पुल pul "ko'priki" otlarning turli xil ko'rinishlari bo'lib, mazkur otlar बंधवा दिया baNdhva: diya: "yasattirdi" fe'lli bilan bog'langan [वासुदेवनन्दन प्रसाद, 2003, – p.101].

Olim hindiy tilidagi kelishiklar sonini sakkizta deb ko'rsatadi hamda kelishiklarni ifodalash uchun ot yoki olmoshlardan keyin maxsus belgilar qo'yiladi, mana shu belgilar hindiy tili grammatikasida वभिक्ती vibhakti: N deyiladi. Ba'zi olimlar mazkur kelishik qo'shimchalarini परसर्ग parsarg ham deydi. U K.Vajpeyining "kelishik qo'shimchalarini वभिक्ती vibhakti: N deb nomlash bizga an'anaga aylangan, uni परसर्ग parsarg so'zi bilan almashtirib qo'llashdan ne naf?" iborasiga qat'iy urg'u beradi. Shu fikrlarga tayangan holda kelishik qo'shimchalarini an'anaviy yo'ldan borib, वभिक्ती vibhakti deb atash to'g'ri bo'ladi², deydi.

Harivansh Sinha ga ko'ra, hindiy tilida kelishik (कारक ka:rak), postpozitsiya (परसर्ग parsarg) hamda qo'shimcha (वभिक्ती vibhakti) o'rtasida farq bor. Ammo ko'pincha mazkur so'zlarning ma'no munosabatida tushunmovchilik va chalkashlik yuzaga keladi. Uning fikricha, वभिक्ती Vibhakti termini sanskrit tilida affiksning bir turi sifatida ishlatilgan. Panini o'z grammatikasida affikslarni ikkiga bo'lgan: ot va sifatlar bilan ishlatiluvchi qo'shimchalar va fe'llar bilan ishlatiluvchi qo'shimchalar. Mazkur qo'shimchalarni u umumiy tarzda वभिक्ती vibhakti deb nomlagan. परसर्ग parsarg "postpozitsiya" esa ancha zamonaviy termin bo'lib, gapda so'zlarni bir - biri bilan bog'laydi. कारक ka:rak "kelishik" termini esa, gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan grammatik kategoriyadir [वासुदेवनन्दन प्रसाद, 2003, – p.102].

Harivansh Sinhning e'tiroficha, ko'pchilik hind tilshunoslari affiks (वभिक्ती vibhakti) va kelishik (कारक ka:rak) o'rtasida farq mavjud ekanligini ta'kidlaydilar. Biroq bu ta'kid hanuz ilmiy isbotlanmagan mavzu bo'lib, uni muhokama qilish foydasizdir [वासुदेवनन्दन प्रसाद, 2003, – p.38].

O'zbek tilshunosligida kelishik shaklining o'rganilish

tarixi A.G'ulomov tadqiqotidan boshlandi [A. G'ulomov, 1941]. U o'z asarida o'zbek tilidagi kelishiklarni semantik va sintaktik xususiyatiga ko'ra o'rgangan. O'zbek tilshunosligida kelishik kategoriyasi haqida so'z bor-ganda, ko'pchilik o'zbek tilshunoslarining "otlarning boshqa so'z turkumidagi so'zlarga nisbatan munosabatini ko'rsatadigan kategoriya" degan fikrlari an'anaviy formulaga aylangan [Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M., 1981. – B. 224]. Olimning fikricha, kelishik kategoriyasini ifodalovchi grammatik vositalar otlar va otlashgan so'zlarning sintaktik vazifasini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda mazkur mavzu qator o'zbek tilshunoslar tomonidan atroflicha yoritildi. Jumladan, H.Ne'matov, H.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, M.Qodirov va h.k.larning ishlarida kelishik kategoriyasining umumiy – grammatik ma'nosi tadqiq etildi [Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabieva D., 1991, B.75-100].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ot so'z turkumiga xos quyidagi kelishik shakllari va ularning mazmun-mohiyati mavjud. Ma'lumki, har bir grammatik kategoriyaning umumiy va xususiy ma'nosi bo'ladi. Jumladan, o'zbek tiliga xos kelishik kategoriyasi uchun umumiy bo'lgan ma'no o'zidan oldingi mustaqil so'zni o'zidan keyingi mustaqil so'zga bog'lashdir. Mazkur umumiy ma'no mavjud olitita kelishikning xususiy ma'no-mazmunlari umumlashmasidir.

1.3.2-jadval

O'zbek tilida kelishiklar va ularning ko'rsatkichlari

№	Kelishiklarning nomi	Qo'shimchasi	Misol
1.	Bosh kelishik	Ø	Daftar
2.	Qaratqich kelishigi	-ning	Daftarning
3.	Tushum kelishigi	-ni	Daftarni
4.	Jo'nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	Daftarga
5.	O'rin-payt kelishigi	-da	Daftarda
6.	Chiqish kelishigi	-dan	Daftardan

O'zbek tilida kelishik qo'shimchalarining qo'llanilishi uchun kamida ikki so'z munosabatga kirishishi kerak. Bir-biri bilan bog'langan ikki so'z bor joyda sintaksis kuchga kiradi: uyda to'qilgan, quyoshning nuri, xonaga kir. Kuzatishlar o'zbek tilshunoslari orasida kelishik kategoriyasiga oid bahs-munozarali muammolar mavjud emasligini aniqladi. Jumladan, olimlarning fikricha, bosh kelishik morfologik ko'rsatkichi bo'lmasligi bilan xarak-

terlanadi. Boshqa kelishiklar bosh kelishikdagi so'zga maxsus affiks qo'shib yasaladi. Bosh kelishikning sintaktik vazifasi asosan ega vazifasida kelishidir. Masalan,

Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi [O'tkir Hoshimov, 1989. – B.10].

Mazkur gapda "betonchi Safar aka" atoqli ot, sintaktik jihatdan tahlil etilganda, gapning egasi va bosh kelishikdadir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, har ikki tilda ham kelishiklarni ifodalovchi maxsus kelishik qo'shimchalar mavjud va ular struktur jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shunday bo'lishiga qaramay, ular funksional jihatdan aynan bir vazifani bajaradi. Biroq o'zbek hindshunosligida hindiy tilidagi kelishik qo'shimchalarini ifodalovchi vositalarni ko'p hollarda ort ko'makchi deb keltirilgani ko'zga tashlanadi³.

Fikrimizcha, hindiy va o'zbek tillaridagi kelishik ko'rsatkichlarini chog'ishtirma-tipologik tahlil etishda ort ko'makchi terminini ishlatish mos kelmaydi. A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" ga ko'ra, "ko'makchilar – ot yoki otlashgan so'zlardan keyin kelib, vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon kabi munosabatlarni bildiruvchi yordamchi so'zlar: bilan, uchun, singari, sayin, qadar va b.". O.S.Axmanovning "Slovar lingvisticheskix terminov" lug'atiga ko'ra esa poslelog – gapda so'zlarni bir-biriga bog'lovchi yordamchi so'z yoki yordamchi shakllardir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot jarayonida autentik materiallar asosida quyidagi xulosaga kelindi, hindiy tilidagi kelishik ko'rsatkichlarini ikki guruhga ajratish mumkin: posleloglar (ने '0, hindiy tilida o'timli fe'llar o'tgan zamonda kelgan egadan keyin ishlatiladi, को '-ni, -ga', से '-dan', का (के, की) '-ning', में '-da (ichida)', पर '-da (ustida)' va ko'makchilar esa (से 'bilan', में 'orasida', के लिये 'uchun') kabi. Biroq tadqiqot natijasi-da umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan ort ko'makchi grammatik termini uchramadi. Autentik materiallardan ko'rinadiki, poslelog hamda ko'makchi terminlarining ma'nolari deyarli bir xil, ayni chog'da ular orasida ba'zi farqlar ham mavjud. Ammo ort ko'makchi grammatik termini nazariy manbalarda uchramadi.

Fikrimizcha, bu tadqiqot tilshunoslik va qiyosiy grammatika sohasida muhim ilmiy ish bo'lib, kelgusida hindiy va o'zbek tillari bo'yicha qiyosiy tahlillarning yanada kengayishiga zamin yaratadi.

3 Asosan hindiy tili darsliklarida shunday holat kuzatiladi. Jumladan, R.A.Aulova, B.R.Rahmatov, M.Q.Sodiqova "Hindiy tili" darsligi I-qism, – Toshkent, 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику, пер.с.англ. – М., Наука, 1978
2. Қодиров М. Ўзбек тилида грамматик категорияларни систем таҳлил қилиш (келишик категорияси): Филол.фан.ном...дисс.автореф, Самарқанд, 1993
3. वासुदेवनन्दन प्रसाद – आधुनिक हिन्दी व्याकरण और रचना – भारती भवन, पटना, 2003
4. Ўткир Ҳошимов. Икки эшик ораси. – Т.: F.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova
Xolmo'min Fayzullayev
Nilufar Namazova
Dilbar Niyazova
Sayyora Halimova
Shaxnoza Yunusova
Nigoraxon Ro'ziyayeva
Tadjixon Sabitova
Oqila To'raqulova

Axborot hamkorimiz:

**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

Bosh muharrir:

Nargiza BERDIYEVA

Muharrirlar:


Bibimariyam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA
Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Rustambek YUSUPOV

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Tadjixon Sabitova.

Yangi O'zbekistonda folklor asarlarini
o'qitishga e'tibor.....2

Habibullo Jo'rayev, Islom Jo'rayev.

Navoiy ijodida ijtimoiy taraqqiyot
omillari ifodasi.....5

Rayxona Norqobilova. Ona tili

darslarida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash
va rivojlantirishning o'ziga xosliklari.....7

TILSHONOSLIK

Dildor Eshmuratova. Ingliz religionim

birliklarining funksional xususiyatlari.....9

Dilafroz Buranova. Kasbiy amaliyot

tibbiyotda ingliz tili ta'limiga kompleks
yondashuvning muhim omili sifatida... 11

Nilufar Karimova. Nofilologik ta'lim

yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda
dastur va darsliklarda "Soft skills"ning
aks etish xususiyatlari.....14

Shaxnoza Qo'ldasheva.

Lingvomadaniyatshunoslik haqida ayrim
mulohazalar.....17

Dildor Otajonova.

Og'zaki nutqning ekspert
xulosalaridagi talqini.....19

Ирода Турамуратова.

Классификация чилийских диалектов
и чилийских языковых зон.....22

Агата Осипова.

Мастерство публичных
выступлений.....26

Барно Кадилова. Роль

характерообозначающих лексем в
русском и узбекском языках.....28

Раушан Торежанова.

Система школьного образования
в Финляндии: анализ опыта.....30

ADABIYOTSHUNOSLIK

Nodira Saidova. Badiiy matn tahlilida

germenevtikaning o'ziga xosligi.....32

Kamola Ulug'murodova.

Mashrab va Uvaysiy she'riyatida Layli
obrazining badiiy talqini.....34

Normuhammad Ubaydullayev.

Abdulla Qodiriy ruhiyati va xarakter
yaratish mahorati.....37

Feruza Burxonova.

Nazar Eshonqulning "Qo'l"
hikoyasida fantasmagorik uslub.....39

Shaxlo Xalilova.

Mavjuda Bozorova. John Miltonning
ingliz adabiyotidagi o'rni.....42

Zilola Shukurova. O'rta Osiyo –

Hindiston adabiy aloqalarini
o'rganishda bayozlarning o'rni.....44

Dilrabo Kosheva.

Oliy ta'lim auditoriya diskursida adabiy
me'yor chegarasi.....46

Nasiba Bozorova. Hayot falsafasining

navoiyona talqini.....49

Hoshimjon Ahmedov. O'zbek

poeziyasida shakl izlanishlari.....51

Nodir Ramazonov.

Alisher Navoiy g'azaliyotida xalq
o'yinlari tasviri.....54

Nigora Jamilova. Nabiya Abdullayeva.

The main themes expressing virtue in
"the green mile".....56

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli
qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Muxlisa Sabirova. Internet mediamatni sarlavhalarida metaforalarning o'rni	59
Zulfiyaxon Masodiqova. Oliy ta'limda nemis tili darslarida kompyuter texnologiyalarining ahamiyati	62
Abduraxmon Ochilov. Ta'lim klasteri sharoitida innovatsion maktablarning ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish omillari va pedagogik texnologiyalari	64
Nozima Vohidova. Nafaqat atlas: instagram ijtimoiy tarmog'ida milliy qadriyatlar mavzusining yoritilishi	67
Индира Наркулова. Применение искусственного интеллекта при обучении культуре страны изучаемого языка	69
Малика Темирова. Социолингвистические аспекты развития интернета	73
Jahongir Tursunho'jayev. Corpus linguistics as a branch of applied linguistics	75

TADQIQOTLAR

Axat Azamatov. Amaliy matematika fanining mazmuni haqida	78
Kamola Raxmatjonova. Hindiy va o'zbek tillarida gapda so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar xususida	80
To'liqin Mardiyev. O'zbek badiiy matnlarida vatan konseptining semantik jihatlari	83
Dilnoza Jumayeva. O'zbek tilida tinish belgilarining morfologik va sintaktik xususiyatlari	85
Nargiza G'oyibnazarova. Boshlang'ich ta'limda fanlar integratsiyalashuvida kreativ fikrlash	88
Sojida Axadova. Ispan va o'zbek tillarida yuridik terminlarning semantik-strukturaviy tahlili	90
Niginabonu Ne'matova. Xitoy va o'zbek tillarida monooperatorli to'siqsiz ma'noli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi	92
Adiba Ma'diyeva. O'zbek va nemis zamonaviy she'riyatida yulduz obrazi interpretatsiyasi	95
Dilfuza Shadiyeva. G'afur G'ulom – folklorshunos	97
Dilfuza Shoymardanova. O'zbek adabiyotida badiiy nutqning sotsiopragmatik talqini: Erkin Vohidov ijodi misolida	99
Ziyoda Mirusmanova. Romantik orientalizm: Bayronning "Giaour" poemasi adabiy-falsafiy yondashuv	101

Zumriniso Kozimova. "Alanga" jurnalida teatr masalasining yoritilishi	105
E'tibor Ortiqova. Jaloliddin Rumiy she'rlarida avtopsixologik holat va inson ruhiyati motivi	108
Lola Alibayeva. XX asr rus adabiyotida postmodernizmning o'rni va ahamiyati	111
Shohsanam Ermanbetova. Habib Sa'dulla ijodida poetik nido san'ati	114
Dilnora Madumarova. "Manyoshu" – o'ng ming barglar to'plami	116
Hulkar RAJABOVA. Realistik qissalarda nutqiy detallarning badiiy maqsadi, vazifasi va ahamiyati	118
Dilafruz Doniyeva. Ingliz tilida qo'rquv hissini ifodalovchi frazeologizmlarning kognitiv belgilariga ko'ra guruhlanishi	121
Maxfuza Qobilova. XX asr ingliz tilshunoslari tomonidan stilistik vositalarning tasnifi	123
Mohira UMARALIYEVA. Temperament tiplariga asoslangan individualizatsiyalangan yondashuvlar orqali ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning psixolingvistik asoslari	127
Muhayyo Hamrayeva. O'quv matnlarini modellashirish asosida o'quvchilarni bog'lanishli nutqdan foydalanish usullari	129
Dilsora Zokirova. Ingliz va o'zbek tillarida somatik obyektlarning paremiologik matnlarda voqelanishi	131
Nargiza Salamova. Talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning muhim omillari	133
Madina Rashidova. Zamonaviy badiiy madaniyat yoshlar nigohida	136
Otabek Qodirov. Jismoniy tarbiyaning yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri	138
Mariya Musurmonova. Rumiy falsafasining bugungi ta'lim jarayonidagi o'rni	141
Gulhayo Boymurodova. Ingliz va o'zbek tillarida mehnat mazmunli maqollarning leksik-semantik asosi	143
Maxmuda Yuldasheva. Lirik asarlar tahlilida evristik yondashuvdan foydalanish usullari	146
Kamola Allanazarova. O'zbek shoiralari ijodida xotin-qizlar ta'limi masalalari	150
Malika Rustamova. Emotsionallikni ifodalovchi frazeologik birliklarning tarjimai: muammolar va yechimlar	152

Umida Abdilakimova. Nofiolologik oliy ta'lim muassasalarida yozishni rivojlantirishda integratsiyaviy yondashuvning pedagogik metodik tizimi 155

Xusnobod Abduraimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishning mavjud holati 157

Sayohat Arziqulova. Zamonaviy o'zbek va turk ayollar she'riyatida idilliyaviylik 159

Орзигул Ибрагимова. Влияние закона экономии языковых средств на развитие системы современного русского языка 162

Елена Уфимцева. Выражение экспрессивности в современной лирической песне 165

Durdona Turdaliyeva. The origins and linguocultural characteristics of the godonyms in fergana city..... 167

Nargiza Komilova. Functional semantic characteristics of the category of epithets in literary texts 170

Nozima Niyazova. The impact of english in the business field..... 172

Mokhinurkhon Ibrokhimova. Interpretation of facial expressions in literary works (based on a.Chekhov's short stories)..... 175

Eldor Rajabov. The role of grammar in expressing ideas in English..... 177

Nozima Mukhtorova. Structural linguistics of the 20 th century: the main ideas of ferdinand de saussure 179

PEDAGOGIKA

Shabon Farmonova. Kvalitologik nazorat vositalari yordamida o'quvchilar bilimini sifatli baholash..... 182

Kamolaxon Abrorxonova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari 184

Dilbar Daminova. Shahnoza Xolto'rayeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik muammolar 187

Otabek Abdunazarov. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda interaktiv testlardan foydalanish 190

Marjona Toshpulatova. "Farhod va Shirin" dostonini topshiriqlar asosida o'rganish..... 193

Dilso'z Nigmatova. Improving writing skills in foreign language teaching 198

Kamola Shadmanbekova. Task-based language teaching (tblt), a practical approach to language learning 200

Mukhayyo Madumarova. Development of Reading Skills Through Internet Technologies 203

Sanobarkhon Isroilova. Application Of The Personality-Oriented Method As A Means Of Increasing Students' Interest In Learning Russian Language At Technical Universities 205

KICHIK TADQIQOT

Maxliyo Maxramova. Elektron ta'lim muhiti oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etish vositasi sifatida 208

Munisa Xudoybeganova. Qoraqalpoq va o'zbek tillariga oid mashina tarjimasining tadrijiy taraqqiyoti 210

Marjona Qudratova. O'zbek, ingliz va koreys tillarida so'z turkumlarining o'xshash va farqli jihatlari 213

Shoxista Toshturdiyeva. 방언와사투리 ma'nolaridagi farqlar 216

Dilafuz Omonova. Meva va sabzavot nomlari leksemalarining tarixiy – etimologik nuqtayi nazardan o'rganilishi..... 218

Xurshida Nemadillayeva. "Cho'lponning dramaturgik ijodi" 220

Dildora Yorbulova. Cho'lpon lirikasi: tematik va g'oyaviy tahlil 222

Mashhura Ergasheva. Ogahiy lirikasida tariqat maqomlari 224

Himmatoy Nazimova. Epik turga xos bo'lgan janrlarda "dev" va "yalmog'iz" obrazining tahlili 226

Oltinoy Razzaqberganova. Xorazm "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari badiiyati 228

Saodat Hasanova. Mashrab ijodida payg'ambarlar obrazi: estetik tafakkur va talqin 230

Mahliyo Bosimova. Bolalarning lug'at boyligini oshirish va so'zlar ma'nosini tushuntirish yo'llari..... 232

Mohinur Muxammadiyeva. The Role of Symbolic Meanings of Words Denoting Color in Creating a National Linguistic Picture of the World 234